



O'ZBEKISTONDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Suyundikov Lochinbek Akmaljon o'g'li

Jamoat xavfsizligi universiteti

ORCID: 0009-0005-8169-8440

suyundikov.lochinbek0826@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada tashabbusli byudjetlashtirishni O'zbekistonda joriy etish amaliyoti o'rganilib, xorijiy davlatlar tajribalaridan tushunchalar olingan. Tadqiqot tashabbusli byudjetni davlat moliyasini boshqarishda ishtirok etish yondashuvi sifatida samaradorligini baholashga qaratilgan. Maqolada xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan turli usullar tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitida moslashuvchanligi va qo'llanilishi baholanadi.

Kalit so'zlar: partisipator budjetlashtirish, mahalliy budjet, davlat budjeti, moliyalashtirish, loyiha.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ИНИЦИАТИВНОГО БЮДЖЕТИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Суюндиков Лочинбек Акмалджан углы
Университет общественной безопасности

Аннотация. В данной статье изучена практика внедрения инициативного бюджетирования в Узбекистане, заимствованы идеи из опыта зарубежных стран. Исследование направлено на оценку эффективности инициативного бюджетирования как подхода к управлению государственными финансами. В статье анализируются различные методы, применяемые в зарубежных странах, оценивается их гибкость и применение в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: партисипатор бюджетирование, местный бюджет, государственный бюджет, финансирование, проект.

THE USE OF ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN IMPROVING INITIATIVE BUDGETING IN UZBEKISTAN

Suyundikov Lochinbek Akmaljon ugli
University of Public Safety

Abstract. This article examines the practice of implementing initiative budgeting in Uzbekistan, and borrows ideas from the experience of foreign countries. The study aims to assess the effectiveness of proactive budgeting as an approach to public finance management. The article analyzes various methods used in foreign countries, assesses their flexibility and application in the conditions of Uzbekistan.

Key words: participator budgeting, local budget, state budget, financing, project.

Kirish.

Jahon mamlakatlarida fuqarolarning budget jarayonida ishtirok etishi va ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, bu orqali davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Fuqarolarning ma'lum shakldagi budget qarorini qabul qilish jarayonida ishtirok etishi demokratik boshqaruv shakllariga ega ko'plab mamlakatlarda deyarli XX asrning o'rtalaridan buyon amalda bo'lib kelmoqda.

Jahon davlat moliyasini isloh etish sharoitida tashabbusli budgetlashtirish orqali moliyaviy resurslardan samarali foydalanish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Budget mablag'laridan samarali foydalanishda davlat xususiy sektor boshqaruvini ajratishning aniqligini ta'minlash, budget mablag'larini ta'minlashda vakolatli organlar rolini kuchaytirish, aholi ishtirokini kengaytirish, fiscal siyosat maqsadlariga erishishni nazorat qilish, moliyaviy axborot va risklarni, ichki va nazoratlarining o'zaro ta'sirini aniqlash, moliyaviy ma'lumotlarning ochiqligi ta'minlanishida real vaqt rejimiga amal qilinishi va amalga oshirilishi, moliyaviy siyosatning ochiqligini ta'minlash me'yorlarini takomillashtirish bu boradagi vazifalarning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda Davlat budgetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, tashabbusli budgetlashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishda o'ziga xos e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holatlar mavjud. Jumladan, tashabbusli budgetlashtirish jarayoni shaffofligi va ochiqligi to'liq ta'minlanmagan, fuqarolarning tashabbusli loyihalari bo'yicha sarflanayotgan mablag'larning maqsadlilik va samaradorligi yetarlicha ta'minlanmagan hamda, budget mablag'larining taqsimotida jamoatchilik tomonidan nazorat qilish mexanizmi talab darajada yo'lga qo'yilmaganligi kabi holatlar mavjud bo'lib, ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish va amaliy yechimlarini topish muhim ahamiyat kasb etadi. "O'zbekiston — 2030 strategiyasi"ga muvofiq, "Mahallaning mablag'larini aholining ovozigacha ko'ra, infratuzilma loyihalariga yo'naltirish amaliyotini joriy qilib, mahallalardagi muammolarni hal etish uchun ajratiladigan mablag'lar miqdorini kamida 3 barobar ko'paytirish. Aholi tashabbusi bilan infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag'larni 24 trillion so'mga yetkazish" vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning bajarilishi tashabbusli budgetlashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish shuningdek, ushbu mavzuni dolzarbligini yanada oshirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Tashabbusli budget tushunchasi va tashabbusli budgetni moliyalashtirishning nazariy va huquqiy asoslari, budget ochiqligi va shaffofligini oshirish, mahalliy soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish orqali mahalliy budget daromadlarini mustahkamlash va daromadlar manbaini kengaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar xorijlik va o'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning asarlarida tadqiq qilingan.

Iqtisodchi Anwar Shah (2007) tashabbusli budgetlashtirish (partitsipator budgetlashtirish) – bu to'g'ridan-to'g'ri demokratiyaning bir turi bo'lib, munitsipal hudud aholisiga mahalliy hukumat budgetining bir qismini taqsimlashda bevosita ishtirok etish imkoniyatidir. Munitsipal (mahalliy) budget mablag'larini taqsimlash ommaviy jarayonda amalga oshirilib, muhokama qilish va keyinchalik tanlangan loyihalarning bajarilishini nazorat qilish orqali amalga oshiriladi (Anwar Shah, 2007) deb ta'rif bergan.

Iqtisodchi olim Vagin (2017) Partisipator budgetlashtirish (PB) – bu mahalliy ahamiyatdagi masalalarni budgetni jamoatchilik fikri asosida shakllantirishga asoslangan holda budget mablag'larini sarflash obyektlarini aniqlash va tanlashda, shuningdek tanlangan loyihalarning amalga oshirilishini bevosita fuqarolar ishtirokida nazorat qilish orqali hal qilishning turli-tuman amaliyotlari jamlamasidir deb ta'riflagan.

Iqtisodchi Anja Roke (2014) tashabbusli budgetlashtirish usullari 1989-yilda Braziliyada paydo bo'lgan bo'lib, shundan beri butun dunyoga tarqaldi. Moslashuv jarayonida ushbu

amaliyotlarni joriy etgan har bir mamlakatda usullar mintaqaviy xususiyatlarga muvofiq o'zgartirildi. Farqlar, birinchi navbatda, rejalashtirish miqyosida edi, mamlakatga qarab, u shahar, mintaqaviy yoki viloyat darajada bo'lishi mumkin edi. Ba'zi mamlakatlarda ushbu jarayonlar Qonunchilik normasi shaklida qo'llanilgan bo'lsa, boshqalarida esa jarayonni ishlab chiquvchilari mahalliy qonunchilikda mavjud bo'lgan vositalardan foydalanganlar. 2014-yildan boshlab tashabbusli budjetlashtirish butun dunyo bo'ylab 1500 dan ortiq hududiy mahalliy organlarda qo'llanilgan va fuqarolarning davlatni boshqarishda bevosita ishtirok etishining muhim instituti bo'lganligini ta'kidlagan.

Iqtisodchi Chumakova (2022) Tashabbusli budjetlashtirish – bu fuqarolarning budjet xarajatlari ob'ektlarini tanlashda bevosita ishtirokida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni hal qilish, shuningdek tanlangan loyihalarning bajarilishini keyinchalik nazorat qilish bo'yicha turli xil, fuqarolik asosidagi Rossiya amaliyotlari to'plamidir deb ta'kidlagan.

Iqtisodchi Xamidov (2023) tashabbusli budjetlashtirish mexanizmi fuqarolarga budjetga xizmat ko'rsatish va monitoringni amalga oshirish vositasi sifatida tushunish va unga bog'liq imkoniyatlardan foydalanish bilan bir qatorda fuqarolarning moliyaviy savodxonligi oshishiga sabab bo'ldi deb ta'kidlagan.

Iqtisodchi Qosimova (2012) ta'kidlaganidek, "Mahalliy budjetlar Respublika budjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy xokimiyatlarning faoliyat yuritishlarida moliyaviy asos bo'lib hisoblanadi. Mahalliy budjetlar faoliyati mahalliy talab-ehtiyojlarini to'laroq qondirishni hamda, davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarining bajarilishi bilan uzviy bog'liq holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Mahalliy budjetlar mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda asosiy manba va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining iqtisodiy asosi bo'lganligi tufayli budjetga qo'shimcha mablag'lar jalb etish manbalarini izlab topish va mavjud mablag'larni samarali sarflanishini ta'minlash orqali budjet siyosati samaradorligini ta'minlaydigan asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy budjetlar faoliyati barqarorligini ta'minlovchi omil – ular daromad bazasini mustahkamlash hisoblanadi".

Professor Jo'rayevning (2005) fikricha soliqlarning budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish tartibini takomillashtirish davlat budjetining daromad bazasini shakllantirish nuqtai-nazardan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, asosiy va barqaror tushum manbai bo'lgan soliq turlarini mahalliy budjetlarga o'z daromad bazasini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Va aksincha, mahalliy budjetlarning daromad bazasini asosan tartibga soluvchi daromadlar (umumdavlat soliqlar) hisobidan shakllanish tartibini yuzaga keltirishi mahalliy moliya organlarida loqaydlikni yuzaga keltirishi hamda soliq undirish samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodchi Mamanazarov (2002) ta'kidlaganidek, mahalliy budjetlarni balanslashtirishning shunday tizimi ishlab chiqilishi kerakki, bu tizim: huquqiy-iqtisodiy samaradorlikning ko'proq mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazilishi. Budjet mas'uliyatini fuqarolarning yashash joyidan qat'iy nazar asosiy ijtimoiy ne'matlardan teng bahramand bo'lishlarini, soliqlarni ko'proq yig'ishdan mahalliy manfaatdorlikning oshishini ta'minlashi zarur. Mahalliy hokimiyatlar qonuniy tartibda o'rnatilgan soliq-budjet avtonomiyasiga ega bo'lmas ekan, ular hududiy moliyalashtirishning iqtisodiy samarasini oshirishga harakat qila olmasliklari ta'kidlangan.

Yuqoridagilardan aytish mumkinki, tashabbusli budjetlashtirishni moliyalashtirishda mintaqalarning o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlash darajasini oshirish, davlat boshqaruvi organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirishdagi roli, mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish, budjet ochiqligi va shaffofligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda jarayonida statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, analiz va sintez, ilmiy abstraktsiya, qiyosiy tahlil qilish, guruhlash hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Mahalliy va xorijiy olimlarning tashabbusli (partisipator) budjetlashtirish bo'yicha iqtisodiy qarashlari sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda, sohaga doir qonuniy va meyoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

1980-yillar oxirida PB (Participatory Budgeting) ilk bor Braziliyadagi Portu-Alegri shahrida paydo bo'ldi. Keyingi yillarda u avval Braziliyaning boshqa shaharlarida va Lotin Amerikasi mamlakatlarida faol qo'llanilgan, so'ng boshqa qit'alarga yoyilgan. Bugungi kunda "Hope for Democracy. 30 years of Participatory Budgeting Worldwide" kitobi mualliflarining baholashicha, Partisipator budjet amaliyotlari soni butun dunyoda 7000 dan oshadi (Vagin, 2021).

Avval boshida PB amaliyotlari asosan shaharlarda amalga oshirilgan edi. Lotin Amerikasida aksariyat million fuqarolik shaharlar partisipator budjetlashtirish tajribasiga ega. Yevropada ham PB — asosan shaharlarga xos amaliyot. Lissabon, Turin, Parij, Milan, Berlin — bu PB loyihalarini amalga oshirayotgan shaharlarning to'liq bo'lmagan ro'yxati. Bir vaqtning o'zida Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarida PB asosan qishloq joylariga xos amaliyot hisoblanadi (Вагин, Тимохина, 2017).

Tashabbusli budjetlashtirishning ilg'or xorijiy mamlakatlarda fuqarolarining jamoatchilik asosida ishtirok etadigan dasturlari va ularning xususiyatlari 1-jadvalda umumlashtirildi.

Dunyoda ushbu yondashuvlarni amalga oshirishning turli misollari mavjud bo'lib, ular davlat va munitsipal hokimiyat organlarining ushbu jarayonga jalb etilish darajasi, budjet mablag'larini taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilishda jamoatchilikning roli, shuningdek, birgalikda moliyalashtirish loyihalarida aholining bevosita moliyaviy ishtiroki zarurligi bilan farqlanadi. Dunyo bo'ylab budjetlashtirishning jamoatchilik asosida ishtirok etishning eng keng tarqalgan shakli bu partisipator budjetlashtirishdir.

U 1980-yillarning oxirida paydo bo'lib, Lotin Amerikasi mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, aholining eng kambag'al qatlamlari muammolarini hal qilish uchun foydalaniladi.

1-jadvaldan ko'rinadiki, tashabbusli budjetlashtirishning dunyo bo'yicha keng tarqalgan **Braziliyaning Portu-Alegri** shahri budjetining 21% ovoz berish yo'li orqali taqsimlanib, unda fuqarolarning 7 000 takliflari joriy qilingan. Natijada mahalliy budjetga soliqlarning yig'iluvchanlik darajasi 50 foizgacha oshgan hamda, xalq demokratiyasining shakllanishiga erishilgan.

Ispaniyaning Sevilya shahrida fuqarolar tomonidan budjetning 50% tashabbusli budjet loyihasi doirasida taqsimlanib, har yili 20 000 dan ortiq odamlar muhokamalarda ishtirok etadilar. Mahalliy boshqaruv organlaridan "budjet nazoratchilari"ni saylash mexanizmi tashkil etilgan. Natijada, "Xalq budjeti" shakllanib, "Partisipator demokratiya" modeli yaratildi (Захарчук, Некрасов, Пасынков, 2019).

Ispaniyada ko'p funktsiyali onlayn-platforma aholiga loyihalar g'oyalarini va loyiha takliflarini taqdim etish hamda, ularga ovoz berish imkonini beradi. Ko'pchilik siyosat sohalari bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bildirish va muammolarni ko'tarish uchun imkon qadar ko'proq odamlarni jalb qilish platformani yaratishdan ko'zlangan maqsad edi. U asosan jamoatchilik ishtirokida budjetni tuzishda qo'llanildi. Onlayn-platformadan foydalanib, fuqarolar uch oy ichida loyiha takliflarini yoqlab yoki unga qarshi ovoz beradi.

Keyin ovoz berishning ikkinchi bosqichi bo'lib o'tadi, unda madridliklar bir yarim oy davomida eng ommabop loyihalar bo'yicha ovoz beradi. Eng ko'p ovoz to'plagan g'oyalar tanlab olinadi va Madrid shahri budjetining dastlabki loyihasiga kiritiladi (O'roqov, Irgashev, G'aybullaev, 2022).


1-jadval

Xorijiy mamlakatlar fuqarolarining jamoatchilik asosida ishtirok etadigan dasturlari va ularning xususiyatlari (Захарчук и др. 2019)

Mamlakat shahar	Aholi soni	Xususiyatlari	Natija
Portu-Alegri, Braziliya 	1 467 823	-budjetning 21% ovoz berish yo'li orqali taqsimlanadi; -fuqarolarning 7000 takliflari joriy qilingan; -hayot sifati indeksi hisobga olingan holda mablag'lar taqsimoti (kambag'al tumanlar ko'proq mablag' oladi)	Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasi 50 foizgacha oshgan; Xalq demokratiya-sining shakllanishi.
Reykjavik, Islandiya 	118 814	-budjet xarajatlarining muhokamasi uchun internetdan keng foydalanish; -on-line ovoz berish jarayoni tashkil etilgan; shahar infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha 1000 dan ortiq takliflar kelib tushgan; -ovoz berish jarayonida aholining 1/3 qismidan ortig'i ishtirok etgan.	Siyosiy jarayonlarga xalq rolinining kuchayishi; Hukumatga nisbatan insonlarning ishonchining tiklanishi.
Boston, AQSh 	4 180 000	-Local Initiatives Support Corporation – shahar infrastrukturasi rivojlantirish va rag'batlantirish tizimi joriy etilgan; - 1 doll. o'z mablag'lari hisobiga LISC investorlar tomonidan 3-4 dollar mablag' kiritiladi; - 1 mln dollardan 2 mln dollargacha investitsiya kiritgan investorlar federal soliqlardan 35%gacha va mintaqaviy soliqlardan 50%gacha imtiyozga ega bo'ladilar.	186 ming kv. m jamoat joylarini tashkil etilishi; 30 ming atrofida fuqarolar uy-joy olishi qo'llab-quvvatlanadi.
Sevilya, Ispaniya 	706 635	- budjetning 50% tashabbusli budjet loyihasi doirasida taqsimlanadi; - har yili 20 000 dan ortiq odamlar muxokamalarda ishtirok etadilar; - internet orqali shaxsiy loyihalarni taqdim etish imkoniyati; - mahalliy boshqaruv organlaridan "budjet nazoratchilari"ni saylash mexanizmi tashkil etilgan.	"Xalq budjeti" shakllanishi; "Partisipator demokratiya" modeli.
Chendu, Xitoy 	16 004 000	-50 000 loyihalar, 90% qishoq xo'jaligiga mo'ljallangan; -qishloq xo'jaligi maqsadida 70 yil muddatga erga egalik qilish huquqidan foydalanish; -loyihaning moliyalashtirilishi; -Davlat investitsiya fondidan kredit olish "Chendu kichik shaharlari investitsion kompaniyasi"	Iqtisodiy o'sish va yashash sifatini oshirish bo'yicha qishloq xo'jaligi infrastrukturasi rivojlantirish.

AQShning Boston shahrida esa, shahar infrastrukturasi rivojlantirish va rag'batlantirish tizimi joriy etilgan. 1 doll. o'z mablag'lari hisobiga LISC investorlar tomonidan 3-4 dollar mablag' kiritiladi. Eng asosiysi, 1 mln dollardan 2 mln dollargacha investitsiya kiritgan investorlar federal soliqlardan 35%gacha va mintaqaviy soliqlardan 50%gacha imtiyozga ega bo'ladilar. Natijada, 30 ming atrofida fuqarolar uy-joy olishiga erishiladi.

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, shuningdek, tadqiqot jarayonida shuni guvohi bo'ldikki, dunyo amaliyotida mahalliy aholi tomonidan budget daromadlarini taqsimlash va nazorat qilishda budgetning 10 foizdan 60 foizgacha qismini taqsimlashda ishtirok etishlari yo'lga qo'yilgan. Xususan, Rossiya Federatsiyasida 10-30 foiz, Kolumbiyada 60 foiz, Ispaniyada 50 foiz, Dominikan Respublikasida 15 foiz, Braziliyada 20-40 foizgacha fuqarolar tomonidan tashabbusli loyihalar asosida budgetlarini taqsimlashda ishtirok etmoqdalar (Вагин, Тимохина, 2017).



1-rasm. Xorijiy mamlakatlarda fuqarolar tomonidan tashabbusli loyihalar asosida budgetlarini taqsimlashdagi ishtiroki %

Manba: tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Rossiya hududida maktab tashabbusi budgetlashtirish loyihasi ilk bor 2017-yilda Saxalin viloyatida joriy qilingan bo'lib, 2019-yildan boshlab Sankt-Peterburg, Yamalo-Nenets avtonom okrugida, Oltoy o'lkasi, Komi Respublikasi, Yaroslavl viloyatlarida mintaqaviy "maktab" dasturlari paydo bo'ldi. Bir qator shaharlarda maktab tashabbuslarini budgetlashtirish loyihasi munitsipal tashabbuslar sifatida belgilangan. Maktab tashabbuslarini budgetlashtirishda qo'llaniladigan amaliyotlar nafaqat Rossiya miqyosida, balki jahon tajribasida ham yangi yondashuvdir (Вагин, Шаповалова, 2018).

RFda "Maktab budgeti-2022" loyihasining asosiy maqsadi, 9-11-sinf o'quvchilarida faol va mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, fuqarolarning budget jarayonida ongli ishtirokini ta'minlaydigan yangi malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Mazkur loyihaning birinchi bosqichi 2022-yil (sentabr-dekabr) tashabbusli loyihalarni tayyorlash va tanlab olish.

2023-yilda g'olib loyihalarni amalga oshirish va 2024-yilda ishga tushurish belgilangan. Loyihada 18 ta ma'muriy hududiy mintaqalardan 90 ta maktab va 12 ming nafar o'quvchilar ishtirok etgan. Maktab TB loyihasining moliyalashtirish hajmi 90 mln rublni tashkil etib, 1 ta maktab uchun 3 mln rubl miqdorida subsidiya ajratilgan.

Xulosa va takliflar.

Mavzu doirasida O'zbekistonda tashabbusli budgetlashtirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalariga ko'ra quyidagi xulosalar shakllantirildi.

O'rganishlar ko'rsatmoqdagi, G'arb yondashuvining asosiy xususiyati - budget mablag'larini taqsimlash bo'yicha **ekspert Kengashlariga jamoatchilik vakillarini kiritilishidir**. Bu esa, moliyaviy resurslarni taqsimlash samaradorligi va fuqarolar uchun budget jarayonining shaffofligini oshirishga imkon beradi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga ko'ra, tashabbusli budgetlashtirishni moliyalashtirish manbasini kengaytirish maqsadida, O'zbekiston amaliyotida **birgalikda moliyalashtirish** mexanizmini joriy etish. Bunda, tashabbusli budgetlashtirishni birgalikda moliyalashtirishda

fuqarolar, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar mablag'lari ishtirok etadi.

Tashabbus loyihalarning investorlarini jalb qilish uchun aholi uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqish. Tashabbusli loyiha ishtirokchilariga kiritilgan investitsiyalar miqdori bo'yicha soliq imtiyozlari va pereferentsiyalarni joriy etish lozim. Bunda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini va aylanmadan olinadigan soliqlar bo'yicha amaldagi stavkalarining 50 foiz pasaytirilgan stavkada soliqni hisoblash amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan kelib chiqib, maktab infratuzilmasini rivojlantirish, budjet mablag'larini taqsimlash jarayonida o'quvchilarida faol va mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida O'zbekistonda ham **"Mening maktabim"** tashabbusli loyihasini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Anja Röcke. (2014) *Framing Citizen Participation: Participatory Budgeting in France, Germany, and the United Kingdom* (англ.). — New York, NY: Palgrave Macmillan, — 240 p. — ISBN 978-1-137-32666-9.

Anwar Shah. (2007) *Participatory Budgeting. Public Sector Governance and Accountability* (англ.). — Washington, DC: Всемирный банк, - 269 p. — ISBN 978-0-8213-6923-4.

Jo'rayev A.S. (2005) *Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning daolzarb muammolari: i.f.d. . diss. avtoreferati. Toshkent, DJQA, - 6 b.*

Mamanazarov A. (2002) *Mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish masalalari. I.f.n.dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, - 24 b.*

O'roqov U., Irgashev I., G'aybullaev O. (2022) *Fuqarolar ishtirokidagi mahalliy byudjet. Baktria press.*

Qosimova G.A., Shaakramov K. (2012) *Mahalliy byudjetlar. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisodmoliya". -260 b.*

Suvnaqulov A.R., Aliasqarov O.A., (2021) *Xorij mamlakatlarida byudjet hisobi.(Darslik). - Toshkent: "Nihol Print". -356 bet.*

Vagin V.V. (2021) *O'zbekiston Respublikasida partisipator byudjetlashtirish va byudjetni jamoatchilik fikri asosida shakllantirish bo'yicha asosiy savollar., Toshkent 2021 yil. 22 bet.*

Xamidov X.X. (2023) *Davlat moliyasini isloh etish jarayonida tashabbusli budjetlashtirish istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi ilmiy darajasini olish uchun yo'zilgan dis. avtoreferati.- Toshkent: TDIU, - 61 b.*

Вагин В.В., Тимохина Е.А., (2017) *25 Вопросы об инициативном бюджетировании : учебное пособие / В.В.Вагин, Е.А.Тимохина, и соавт. - Москва: Т8 Издательские технологии, - 46 с. <https://www.participatorybudgeting.org/what-is-pb/>.*

Вагин В.В., Шаповалова Н.А. (2018) *Состояние инициативного бюджетирования в Российской Федерации: новые тренды и возможности развития // Научно-исследовательский финансовый институт. Финансовый журнал. № 1 (41). С. 110–122.*

Захарчук Е.А., Некрасов А.А., Пасынков А.Ф. (2019) *Бюджетирование на основе общественного участия: зарубежный опыт и практика применения в России. Финансы: теория и практика. 23(1).*

Чумакова, Е. А. (2022) *Актуальные вопросы развития инновационного бюджетирования в Российской Федерации. Учебное пособие. Волгоградский институт управления – филиал РАНХиГС, - 158 с.*